



INTEGRATSIYALASHGAN MUSIQA MASHG'ULOTLARIDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Muallif: Hamrayeva Umida Shonazarovna ¹

Affilyatsiya: O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Musika ta'limi” kafedraasi
asestenti ¹,

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14436937>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada integratsiyalashgan musika mashg'ulotlarida multimedia texnologiyalarining ahamiyati xususida ayrim mulohazalar bayoni keltirilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, multimedia, texnologiya, musika, pedagogika, ta'lim, onlayn, muhokama, mashg'ulot.

Maktabgacha ta'lim davri bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan davr hisoblanadi. Shuning uchun, musika rahbari mashg'ulotlar jarayonida bolalarda yoshiga mos va ularga tushunarli mazmunda musika asarlari go'zalligini his qilish, mazmunini tushunish, Vatanga muxabbat hissi, milliy g'ururini shakllantirish, yorqin ifoda vositalarini farqlash, musika asarining 2-3 qismli shaklini mustaqil farqlay olish kabi layoqatlarni tarkib topdirmog'i lozim [4, 125].

Keyingi vaqtlarda maktabgacha talim tashkilotlarida musika mashg'ulotlarini amalga oshirishda integrallashgan talim metodlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sababi, bolada onavatanga muhabbat, insoniy fazilatlarni shakllantirish musika mashg'ulotlarining asosiy maqsadi sanaladi. Shu manoda musika sanatini o`rganish bo`yicha integrallashgan mashg`ulotlar keng rasm bo`lishi qonuniy tus oldi. Integrallashgan estetik shakl musika mashg'ulotlarida, san`at predmetlarini integratstiyalashi, bolalarni sanat predmetlarni o`qitishning muqobil tizimi, ekanligini takidlash imkonini beradi.

Integratsiya – o`qituvchining turli fanlar bo`yicha kuzatishlari va xulosalarni tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbaidir. Ular faoliyatning turli shakllari almashib turishi orqali o`quvchilar charchashi va asabiylashishining oldini oladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta`lim tizimida talimiy va tarbiyaviy mashg'ulotlarni integratsiyalash to`g`risida ko`p so`z yuritilmoqda. Olimlar va amaliyotchi tarbiyachilar bolalarda qanday qilib dunyo to`g`risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo`yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dasturni tuzish to`g`risida bosh qotirishyapti. Integratsiyalashgan mashg'ulotdan kutiladigan maqsad faqat ma`lum bilimlarni egallashga emas, balki tasvirli fikrlashni rivojlantirishga qaratiladi. Olamning

umumiy ko`rinishi tovushlar, tasvirlar, ranglar orqali tanishtiriladi, bola esa ham dunyoni, ham o`zini o`rganuvchi, tekshiruvchi o`ringa qo`yadi [1, 70b].

Asosiy bilimlarni o`zlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushinishda predmetlar ichidagi va predmetlar aro aloqalarini o`rnatish talimga integratsiyalashga yondoshuvning metodik asosidir. Bunga turli mashgulotlarga tushunchalarga ko`p marotaba qaytishi, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo`lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib yaxshi shakllangan tuzilish va o`tkazish tartibiga ega bo`lgan, tarkibiga shu o`quv predmetiga tegishli bo`lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday mashgulot integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalangan mashgulotga boshqa mashgulot, boshqa o`kuv predmetlari bilan bog`liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi. Masalan, «tabiat», «suvlar», «gozallik», kabi tushunchalar tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy sanat mashgulotlarida ko`rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilish boshqa o`quv mashgulotlarida o`zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi. Musiqa mashgulotlari ijodiy, erkin bo`lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o`ziga xos o`tish metodikasiga ega bo`ladi.

Albatta bunday mashgulotlarni olib borish musiqa rahbaridan yuksak mahoratni, boshqaruvchanlikni talab etadi. Integratsion mashgulotlarda bola jimgina tomoshabin bo`lib o`tirmaydi. U mashgulot jarayonida faol va izchil qatnashadi. Aynan shunday mashgulotlarda bolalarda badiiy tafakkur va tasavvur rivojlanadi, estetik xisssiyotlari tarbiyalanadi.

Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalari, shu jumladan maktabgacha ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari vositalari bilan jihozlanmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonida yangi kompyuter va axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositalarining joriy etilishi, pedagog-tarbiyachilarning axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, ularning integratsiyangan mashg'ulotni tashkil etish jarayonidagi maqsadi, vazifalari va tutgan o'rnini o'zgartiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga ta'lim berishda axborot texnologiyalaridan foydalanish murakkab masala hisoblanib, ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Lekin shunga karamay, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularning har tomonlama yetuk inson bo`lib rivojlanishida integratsiyalangan mashgulotlarda kompyuter texnologiyalari vositalaridan foydalanish o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning badiiy-musiqiy faoliyatini, matnlarni o'qish, rasmlarni ko'rish va ajrata bilish tasavvurlarini kengaytirish kompyuterli o'yin dasturlari orqali fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Bu borada maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi uchun mo'ljallangan kompyuterli o'yin dasturlarining ta'lim jarayonida o'z samarali jihatlari jiddiy yondashuv va e'tibor kerak bo'ladi.

Integratsiyalangan musiqa mashgulotlari shunday tashkil etilishi kerakki, multimedia texnologiyalarini musiqa mashgulotlarida qo'llash, unda bajariladigan har bir harakat bolalar tomonidan to'g'ri qabul qilinishi, bajarilishi va tasavvur etilishi lozim.

multimedia dasturidagi har bir harakatni bola tushuna olishi, uni qanday bajarish kerakligini o'ylash va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Multimedia atamasining lug'aviy ma'nosi ikkita so'z yig'indisidan tashkil topgan bo'lib, multi-ko'p, media-muhit ma'nosini anglatadi. Atama ilmiy va o'quv adabiyotlarida «ko'p vositalilik», «multimedia muhiti» «ko'p qatlamli muhit», «ma'lumot tashuvchi vosita» kabi talqin qilinib kelinmoqda.

Hozirgi davrda multimedia atamasi ko'p qirrali bo'lib, turli hil tushunchalarni ifodalashga tatbiq etib kelinmoqda. Masalan, multimedia texnologiyasi; multimedia mahsuloti; multimediali kompyuter; multimedia dasturi va boshqalar shular jumlasidandir.

Multimedia bu maxsus texnologiya bo'lib, dasturiy va texnik moddiy ta'minot asosida kompyuterda bir vaqtning o'zida matnli, tasviriy axborotni tovushli va harakatli holda ifodalash imkoniyatidir.

Belgilangan maqsad asosida o'tkaziladigan didaktik jarayon rejalashtirilganda uni amalga oshirish osonlashadi. Binobarin, musiqa rahbarining musiqa mashg'ulotlari xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki mashg'ulotning texnologik xaritasida, har bir mavzu tarbiyalanuvchining imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tuziladi.

Mashg'ulotning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu musiqa rahbarining tajribasi, qo'ygan maqsadi va imkoniyatlariga bog'liqdir.

Musiqa rahbari katta hamda maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari bilan integratsiyalangan musiqa mashg'ulotlari jarayonida qo'llashi mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglarni keltirib o'tamiz. Masalan: "Tinglaymiz va tahlil qilamiz" metodi; "notali oyinlar" metodi; "ovozidan top" metodi; "tarmoqlar" metodi; "interviyu" texnologiyasi; "multimedia" texnologiyasi va boshqalar.

Albatta, tarbiyalanuvchilarda musiqaga nisbatan motiv hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir. Bolalarda o'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yin ularda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundur. Ushbu didaktik oyinlarni biz multimedia texnologiyasi orqali integratsiyalangan musiqa mashg'ulotlarida qo'llashning nazariy va amaliy mazmunini yoritishga harakat qilamiz.

"Multimedia" texnologiyasi uchun o'yin g'oyasi va vazifalari muhim ahamiyatga ega. Biz misol tariqasida "ovozidan top" didaktik o'yini keltirib o'tishimiz mumkin.

"Ovozidan top" didaktik o'yini.

O'yin mavzusi. Xalq cholg'ulari nomlari va turlarini multimedia texnologiyasi orqali ovozini eshitish va tasvirini korib aytish.

O'yin maqsadi: Bu o'yinda integratsiyalangan musiqa mashg'ulotining asosini tashkil etuvchi musiqa sanatining turli sohalarini qamrab olgan jihatlari orqali tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati; tinglash madaniyati, nutq hamda xotirasi; musiqiy savodi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi hamda rivojlanadi.

O'yinning borishi: Musiqa rahbari musiqa cholg'ularining turlari asosida multimedia texnologiyasi orqali texnik vositalarda tarbiyalanuvchilarga qoyib beradi. Mashg'ulot dasturiga joylashtirilgan har bir cholg'ular musiqa rahbari tomonidan birma-bir tariflab otiladi. Shundan song tarbiyalanuvchilar musiqa cholg'ularidan yandrayotgan ohang orqali ularni qaysi cholg'u ekanini nomlarini aytadilar. Eng ko'p

to'g'ri javob topgan bola g'olib sanaladi. Bu o'yinni o'tkazish tarbiyalanuvchilarga musiqa cholg'ulari haqidagi dastlabki ma'lumotlar berish jarayonini yengillashtiradi. Bundan tashqari ularning so'z boyligi ortib, ularda hozirjavoblik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlar shakllanadi.

Albatta, bu o'yinda tarbiyalanuvchilarning savollarga aniq javob berishi, musiqa rahbarining musiqa cholg'ulari hamda ularning turlari haqida mashg'ulotlar davomida berib borgan saboqlariga bog'liq.

“Multimedia” texnologiyasida quyidagilar berilishi mumkin:

1- Ekranda qaysi cholg'ularning tasvirini kordingiz va ovozini tingladingiz, ularning nomlarini bilasizmi?

Javob: tanbur, rubob, gitara, fortepiano, doira, chang, g'ijjak...

2 – Ekranda puflab chalinadigan cholg'ularning qaysilarini kordingiz ularni ovozidan farqlay olasizmi, nomlarini sanab oting?

Javob: surnay, karnay, nay, qo'shnay....

3 – Ekranda zarbli (urib chalinadigan) cholg'ularni qaysilarini kordingiz nomlarini ayting?

Javob. Doira, nog'ora, chang...

Agarda bolalar orasidan tasvirda korgan cholg'u asboblarini nomini ayta olmasa, yoki ovozidan farqlay olmasa, savollarga to'g'ri javob topa olmasa, musiqa rahbari o'sha bolalar bilan alohida shug'ullanib, ularning cholg'ular borasidagi bilimlarini rivojlantiradi.

Shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, maktabgacha ta'lim dargohlarida musiqa mashg'ulotlari samaradorligini oshirish uchun integratsiyalangan multimedia mashg'ulotlaridan unumli foydalanish tarbiyalanuvchilarning musiqiy savodxonlik darajalarini o'stiribgina qolmay, balki musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini ham shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Mavlonova R. A. Boshlang'ich talimning integratsiyalashgan pedagogikasi (metodik qo'llanma). - T.: 2005.

Aripov M. Informatika va axborot texnologiyasi asoslari. - T.: Universitet, 2001.

Adilova S. Multimedia va ularni ta'lim jarayonida qo'llash. T.: TDPU, 2001. № 2. - B. 20-21

Bolajon tayanch dasturi (Takomillashtirilgan “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari” asosida ishlab chiqilgan) Nashr uchun mas'ul: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri A. M. Marahimov –Toshkent: 2010. 132 b.